

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA TA'LIMIY FAOLIYATLARNI TASHKIL ETISHDA KREATIV VA NOAN'ANAVIY YONDASHUVLAR

Raxmatova Gulobod Tuyboy qizi

Navoiy davlat pedagogika instituti maktabgacha ta'lism kafedrasini o'qituvchisi

Ostonova Xurshida G'ofurovna

Navoiy davlat pedagogika instituti maktabgacha ta'lism yo'naliishi 3-bosqich talabasi

Annotatsiya

Ushbu maqolada maktabgacha ta'lism tashkilotlarida ta'limiyl faoliyatlarni tashkil etishda kreativ va noan'anaviy yondashuvlar yoritib berilgan. Maktabgacha ta'lism tashkilotlarida ta'limiyl faoliyatlarni tashkil etishda kreativ va noan'anaviy yondashuvlar orqali pedagog-tarbiyachilar maktabgacha yoshdagi bolalarga bilim, malaka va ko'nikmalarini tez va oson shakllantirishlari mumkun.

Kalit so'zlar: Maktabgacha ta'lism tashkiloti, kreativ yondashuvlar, noan'anaviy yondashuvlar, innovatsion yondashuvlar, pedagog-tarbiyachilar, kreativ yo'l xaritasi, rag'bathantiruvchi strategiyalar.

Annotation

This article describes creative and non-traditional approaches to the organization of educational activities in preschool educational organizations. Through creative and non-traditional approaches to the organization of educational activities in preschool educational organizations, pedagogues-educators can quickly and easily form knowledge, skills and abilities of preschool children.

Keywords: Organization of preschool education, creative approaches, non-traditional approaches, innovative approaches, pedagogues-educators, creative road map, motivational strategies.

"Mamlakatimizda maktabgacha ta'lism sohasini yanada rivojlantirish bo'yicha keng amalga oshirilayotgan islohatlar natijasi o'laroq maktabgacha yoshdagi bolalarning maktabgacha ta'lism tashkilotlariga qamrov darajasi oshdi. Bundan ko'rinish turibdi-ki, davlatimiz tomonidan o'tkazilayotgan har bir islohotlar o'z natijasini bermoqda. Maktabgacha ta'lism tashkilotlarining pedagog xodimlarini attestatsiyadan o'tkazish besh yilda kamida bir marta amalga oshiriladi. Maktabgacha ta'lism tashkilotlarining pedagog xodimlarini attestatsiyadan o'tkazish Davlat inspeksiyasi tomonidan amalga oshiriladi. Maktabgacha ta'lism tashkilotining

pedagog xodimlarini attestatsiyadan o'tkazish natijalariga ko'ra pedagog xodimning egallab turgan lavozimiga muvofiqligi aniqlanadi va uning malaka toifasi belgilanadi.”¹ Bundan shuni anglash kerakki, har bir pedagog-tarbiyachilar o'zлari ustida tinmasdan ishlari kerak. Har doim o'z bilimlarini oshirishlari natijasida o'zлari tarbiyalayotgan bolalarning ham bilim, malaka va ko'nikmalari shakllanadi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim jarayonining asosiy shakli bu ta'limiy faoliyatlardir. Shunday ekan bola olishi kerak bo'lган bilimlarni mustahkam egallashi uchun mashg'ulotlarni innovatsion yondashuvlar asosida olib borilsa samarali natjalarga erishish mumkin.

Bolalarga mashg'ulotlar odatiy tarzda tashkil etilsa, bolalar uchun malumotlar qiziqarsiz va esda qolish darajasi past bo'ladi. Tashkil etilayotgan ta'limiy faoliyatlarini birinchi bo'lib, kunning qaysi qismida bo'lishiga e'tibor qaratishimiz lozim. Asosan , maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'limiy faoliyatlar kunning birinchi qismida tashkil etiladi. Ta'limiy faoliyatlarni tashkil etishda bolalarning qiziqishlarini ham inobatga olish joizdir. Chunki bolalar tashkil etilayotgan ta'limiy faoliyatlar va o'yinlarga qiziqish bildirmasa , bu jarayonlar o'z natijasini bermaydi. Hozirgi vaqtida maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'limni tashkil etishning noan'anaviy shakllari samarali qo'llanilmoqda. Bolalarning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda tashkil etiladigan ta'limiy faoliyatlar buning yaqqol dalilidir. Masalan, tarbiyachi ta'limiy faoliyatlarni bolalarning o'zлari tomonidan bir-birlariga tushuntirishadi. Bolalar tarbiyachidan ko'ra o'z tengdoshlarining aytayotgan ma'lumotlari tez yodida qoladi. Mashg'ulotlar o'yin bilan boyitilsa yanada maqsadga muvofiq bo'ladi. O'yin kontseptsiyasiga berilib ketgan bola yashirin o'rghanish vazifasini sezmaydi. Bu mashg'ulotlar bolaning vaqtini sermazmun qilishga yordam beradi, u o'z xohishiga ko'ra va o'zi xohlagancha bilim, malaka va ko'nikmalarni hosil qiladi. Masalan, bola dam olish vaqtida yoki u uchun qiziqarli yoki hissiy jihatdan muhim bo'lган vazifalarni bajarganda ham noan'anaviy usullardan foydalanib tashkil etilgan o'yin tariqasida bajaradi va buni yaqin atrofidagi bolalarga ham singdiradi. Bunda nafaqat bola balki uning yon atrofidagi bolalar ham bilimlarga ega bo'ladi.Maktabgacha yoshdag'i bolalarning asosiy faoliyat turi o'yin bo'lganligi uchun bolalarga o'yin tariqasida va noan'anaviy usullardan foydalanib tashkil etilgan mashg'ulotlar o'z natijasini berishini yuqorida ko'rishimiz mumkin.

Maktabgacha yoshdag'i bolalar bilan tashkil etilgan mashg'ulotlarda kreativ g'oyalalar ham muhim o'rin egallaydi. Mashg'ulotlarda biz noan'anaviy usullardan va kreativ g'oyalardan foydalansak , mashg'ulot samaradorligini yanada oshirgan bo'lamiz. Pedagog-tarbiyachi o'z-o'zidan ijodkor bo'lib qolmaydi. Uning ijodkorlik qobiliyati ma'lum vaqt ichida izchil o'qib-o'rghanishi, o'z ustida ishlashi orqali shakllantiriladi va u asta-sekin takomillashtirilib , rivojlantirilib boriladi.

¹ “ Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida”gi .O'RQ-595 son 16.12.2019

Bunda pedagog-tarbiyachilar o‘zini o‘zi ijodiy faoliyatga yo‘naltirishi va bu faoliyatni samarali tashkil eta olishi muhim ahamiyatga ega. Pedagog-tarbiyachilar ijodiy faoliyatni tashkil etishda muammoli xarakterdagi ijod mahsulotlarini yaratishga alohida e’tibor berishi zarur. O‘zini o‘zi ijodiy faollashtirish – shaxsning ijodiy faoliyatda o‘z imkoniyatlarini to‘laqonli namoyon qilishi va rivojlantirishining ijodkor va kreativ bo‘lishi yoki bo‘lmasligi emas, balki mashg‘ulotlarni kreativlik ruhida tashkil etishi, yangi g‘oyalarni ta’lim jarayonida sinab ko‘rishga intilishi kerak. Chunki pedagog-tarbiyachilar o‘zining tashkil etadigan mashg‘ulotlarining samaradorligini yanada ko‘proq oshiradi. “Pedagog-tarbiyachilar mashg‘ulotlarda “kreativlik yo‘l haritasi”ga asoslangan holda 4 ta yo‘nalish bo‘yicha harakatlanishi va ulardagi harakatlar pedagoglarning kreativligini ifodalovchi belgilar hisoblanadi:

- 1) ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini namoyon etish;
- 2) mashg‘ulotlarni qiziqish bilan o‘zlashtirishga rag‘batlantiruvchi strategiyalardan foydalana olish;
- 3) innovatsion yondashuv va pedagogik masalalarning yechimini topishga kreativ yondashish;
- 4) kutiladigan natijada bir tomonlama fikrlash esa birgina to‘g‘ri g‘oyaga asoslanishni ifodalaydi.”²

Pedagog ijodiy faoliyatni tashkil etishda muammoli masalalarni yechish, muammoli , pedagogik xarakterdagi ijod mahsulotlarini yaratishga alohida e’tibor qaratishi lozim.

Bunda pedagogning o‘zini o‘zi ijodiy faoliyatga yo‘naltirishi va bu faoliyatni samarali tashkil eta olishi muhim ahamiyatga ega. Pedagog-tarbiyachilar ijodiy faoliyatni tashkil etishda muammoli masalalarni yechadi, muammoli vaziyatlarni tahlil qiladi, shuningdek, pedagogik xarakterdagi ijod mahsulotlarini yaratishga alohida e’tibor qaratishi zarur. Pedagog-tarbiyachilar muammoli masala va vaziyatlarnitahvilqiladi, pedagog-tarbiyachilarining masala yechimini topishga ijodiy yondashishi unda hissiy-irodaviy sifatlarning rivojlanishiga yordam beradi. Pedagog-tarbiyachilar o‘z oldiga muammoli masalalarni qo‘yish orqali mavjud bilimlari va hayotiy tajribalariga zid bo‘lgan dalillar bilan to‘qnash keladi. Buning natijasida o‘z ustida ishslash, mustaqil o‘qib o‘rganishga nisbatan ehtiyoj sezsa boshlaydi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish joizki, maktabgacha ta’lim tashkilotlarida pedagog-tarbiyachilarining noan’anaviy va kreativ usulda tashkil etilgan ta’limiyfaoliyatlar o‘z natijasini beradi. Bunda pedagog-tarbiyachilardan yuqori bilim va ijodkorlik talab qilinadi. Kelajagimizni egalari bo‘lgan farzandlarimizni har tomonlama barkamol tarbiyalash bizning eng muhim maqsadimizdir. Bu maqsad yo‘lida tinmasdan harakat qilish bizning burchimiz desam mubolag‘a bo‘lmaydi. Mamlakatimiz rivoji , vatan taraqqiyoti uchun xizmat qilish oliy sharaf .

² <https://fayllar.org/mundarija-kirish-v5.html?page=2>

Foydalaniman adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Qonuni.”O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim to‘g‘risidagi qonuni”O‘RQ 16.12.2019.
2. Vazirlar Mahkamasi Qarori “Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash to‘g‘risida” 22.12.2020
3. F.R Qodirova, Sh.Q Toshpo‘latova, N.M.Kayumova va MN.A’zamova .”Maktabgacha pedagogika “.Toshkent-2019
4. Xasanboyeva O.U. va boshq. “Maktabgacha ta’lim pedagogikasi”. T.: Ilm ziyo, 2006.

Veb-saytlar:

- 1.<https://fayllar.org/mundarija-kirish-v5.html?page=2>
- 2.<https://goaravetisyan.ru/uz/netradicionnye-formy-provedeniya-zanyatiy-v-detskom-sadu-netradicionnye>
3. <https://lex.uz/docs/-4646908>